

# XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

---

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

---

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

## PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL  
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION  
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

# 2023

## 5-son

(Sentabr-Oktabr)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan  
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

|  |   |                                                                                              |
|--|---|----------------------------------------------------------------------------------------------|
|  | 4 | Ta'lim sifatini oshirish – yangi o'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir |
|--|---|----------------------------------------------------------------------------------------------|



**TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI**

|                                       |    |                                                                                                                                           |
|---------------------------------------|----|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>A. Nasirov</b>                     | 6  | Umumiy o'rta ta'limni takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik va metodologik asoslari (dasturiy konsepsiya)                             |
| <b>X. Ibraimov,<br/>F. Ibragimova</b> | 12 | Gender o'z-o'zini anglash – gender tenglikni ta'minlashning ustuvor prinsipi sifatida                                                     |
| <b>O. G'aniyev</b>                    | 15 | Bo'lajak o'qituvchilar metametodik kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik taminoti                                                  |
| <b>M. Umnova</b>                      | 19 | Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatida bilishga qiziqishlarining rivojlanish tendensiyalari                                 |
| <b>Sh. Jo'rayev</b>                   | 24 | Bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv pozitsiyasi falsafiy va pedagogik-psixologik muammo sifatida                                         |
| <b>J. Shukurllayev</b>                | 28 | Talabalarni ilmiy va kasbiy faoliyatga tayyorlashda akmeologik yondashuvning mazmuni                                                      |
| <b>D. To'rayeva</b>                   | 31 | Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy kompetentligini rivojlantirish (Integrativ yondashuv asosida)                        |
| <b>G. Ibragimova</b>                  | 35 | O'zbekistonda umumiy o'rta ta'lim sifatini rivojlanishiga oid tarixiy ma'lumotlar                                                         |
| <b>A. Suyunov</b>                     | 38 | Integrativ yondashuv asosida tarix o'qituvchilarining o'zini o'zi kasbiy rivojlantirish definitsiyasining psixologik-pedagogik aspektlari |



**TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI**

|                                    |    |                                                                                                                                                          |
|------------------------------------|----|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>N. Yuldasheva</b>               | 42 | Pedagogik jarayonda "o'zbek tilining sohada qo'llanilishi"ni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari                                                       |
| <b>R. Eshimov,<br/>S. Israilov</b> | 46 | Umumta'lim maktablariga doir kompyuter imitatsion modellar yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish metodikasi (7-sinf "fizika" o'quv predmeti misolida) |
| <b>Q. Muxammadiyev</b>             | 51 | Texnologiya fanlarni o'qitishda zamonaviy ta'lim metodlaridan foydalanish                                                                                |
| <b>R. Ziyayev,<br/>M. Umarova</b>  | 54 | Organik kimyoda spirtlar mavzusi o'tilganda oksidlanish – qaytarilish reaksiyalarini o'rganish                                                           |
| <b>L. Mambetova</b>                | 58 | Ona tili darslarida o'quvchilar nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslanishi                                                         |
| <b>O. Yusupov</b>                  | 61 | Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib geometriya fanni o'qitish metodikasi                                                       |



**ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI**

|                        |    |                                                                                                                                       |
|------------------------|----|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>G. Buvorayeva</b>   | 65 | Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning tarbiyaviy kompetensiyalarini uyg'unlashtirish texnologiyasi (Jismoniy tarbiya fani misolida) |
| <b>B. Amirullayeva</b> | 68 | Ta'lim oluvchilarning ko'nikma va malakalarini rivojlantirish – ilmiy-pedagogik muammo sifatida                                       |

|                                                                                     |                                        |                                                                                                                                             |
|-------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>M. Tairova</b>                                                                   | 75                                     | Bo'lajak tarbiyachilarni mutaxassislikka tayyorlashda zamonaviy didaktik vositalardan foydalanish                                           |
| <b>N. Kadirova</b>                                                                  | 79                                     | O'quvchi tanqidiy tafakkurini rivojlantirishda yangicha yondashuv tajribasidan                                                              |
| <b>Z. Komilova</b>                                                                  | 84                                     | Innovatsion ta'lim-tarbiya jarayonida 10-11-sinf o'quvchilarini axborot madaniyatini rivojlantirish                                         |
| <b>I. Jumaniyazova</b>                                                              | 89                                     | Milliy mumtoz adabiyot namunalarining o'qitilishiga doir tadqiqotlar tahlili                                                                |
|    | <b>TA'LIMDA MENEJMENT</b>              |                                                                                                                                             |
| <b>M. Xalilova</b>                                                                  | 93                                     | Maktabgacha ta'lim tizimida inson kapitalini rivojlantirishda ikkinchi tilni o'rganishning psixofiziologik ahamiyati                        |
|    | <b>KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH</b>       |                                                                                                                                             |
| <b>K. Masharipov</b>                                                                | 97                                     | Uzluksiz ta'lim tizimida kasbga yo'naltirish ishlarini takomillashtirishning dolzarbligi                                                    |
|    | <b>HUQUQ VA HUQUQIY TARBIYA</b>        |                                                                                                                                             |
| <b>D. Sharipova, I. Ibrohimov</b>                                                   | 100                                    | Yo'l harakati xavfsizligida piyodalarning o'rni – pedagogik aspekt (Koriya tajribasi asosida)                                               |
|    | <b>JISMONIY TARBIYA VA SPORT</b>       |                                                                                                                                             |
| <b>V. Karayev</b>                                                                   | 106                                    | Port hakamlarini tayyorlashda kompetensiyaga asoslangan yondoshuv                                                                           |
| <b>Sh. Mirzakulov</b>                                                               | 110                                    | 5-7 sinf o'quvchilarida chidamlilikni rivojlantirish texnologiyasi                                                                          |
| <b>A. Sabirov</b>                                                                   | 114                                    | Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining innovatsion kasbiy faoliyatini shakllantirishning uslubiy ahamiyati                            |
| <b>Sh. Ro'ziyev</b>                                                                 | 118                                    | Voleybol murabbiyining kasbiy-pedagogik tayyorgarligi                                                                                       |
|  | <b>MAKTABGACHA TA'LIM</b>              |                                                                                                                                             |
| <b>A. Shadiyev</b>                                                                  | 122                                    | Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish dinamikasiga xos xususiyatlar                                                                  |
|  | <b>QIYOSIY PEDAGOGIKA</b>              |                                                                                                                                             |
| <b>D. Kamoljonova</b>                                                               | 126                                    | Xorijiy tajribalar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kito-bxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish (AQSh va Yevropa misolida)       |
| <b>A. Xolmurodov</b>                                                                | 130                                    | Pedagog kadrlar malakasini oshirishning ilg'or xorijiy tajribalari                                                                          |
|  | <b>KORREKSION PEDAGOGIKA</b>           |                                                                                                                                             |
| <b>R. Safarov</b>                                                                   | 135                                    | Ko'zi ojiz bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasida ta'lim sifatini boshqarishda korreksion tarbiya va tarbiyachilarning o'rni |
|  | <b>ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ</b> |                                                                                                                                             |
| <b>Л. Набиуллина</b>                                                                | 140                                    | Подходы, принципы и направления развития интеллектуальной мобильности в системе высшего образования                                         |

**Intizor JUMANIYAZOVA,**

A.Qodiriy nomidagi ijod maktabi oliy toifali o'qituvchisi, Alisher Navoiy nomidagi til va adabiyot instituti mustaqil tadqiqotchisi

## **MILLIY MUMTOZ ADABIYOT NAMUNALARINING O'QITILISHIGA DOIR TADQIQOTLAR TAHLILI**

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada o'tmishdagi va hozirgi paytdagi adabiyotshunos va metodist olimlarning pedagogika fani taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissalari, ular yaratgan ma'naviy meros va ularning hozirgi paytdagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, ko'plab metodist olimlarning tadqiqot ishlaridan namunalar keltirib o'tilgan hamda ijod maktablarida adabiyot fanini zamonaviy usulda o'qitish, milliy metodika va xorijiy tajriba asosida adabiy ta'limni tashkil etish, adabiyot darslarida o'quvchilarning mantiqiy, kreativ, ijodiy tafakkurini o'stirish haqida mulohazalar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar.** Kreativ fikrlash, aql tarbiyasi, fanlararo integratsiya, ko'rgazmalilik, milliy mumtoz adabiyot namunalari.

В этой статье рассматривается огромный вклад ученых-литературоведов и методистов в развитие педагогической науки в прошлом и настоящем, духовное наследие, которое они создали, и их значение в настоящем. Также были приведены примеры исследовательской работы многих ученых-методистов и высказаны соображения по современному методу преподавания литературы в школах творчества, организации литературного образования на основе национальных методик и зарубежного опыта, развитию логического, творческого мышления учащихся на уроках литературы.

**Ключевые слова.** Креативное мышление, интеллектуальное образование, междисциплинарная интеграция, демонстрация, образцы национальной классической литературы.

This article examines the enormous contribution of literary scholars and methodologists to the development of pedagogical science in the past and present, the spiritual heritage they created, and their significance in the present. Examples of the research work of many methodologists were also given and suggestions were made on the modern method of teaching literature in creative schools, the organization of literary education based on national methods and foreign experience, the development of logical, creative thinking of students in literature lessons.

**Key words.** Creative thinking, intellectual education, interdisciplinary integration, visuality, examples of national classical literature.

**M**amlakatimizda ta'lim sohasida olib borilgan islohatlar natijasida 2018-2019-yillarda ijtimoiy-gumanitar fan sohalarini o'zida qamrab olgan Abdulla Qodiriy, Halima Xudoyberdiyeva, Hamid Olimjon, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Ogahiy, Muhammad Yusuf nomli ijod maktablari tashkil etildi. Ijod maktablarining asosiy maqsadi iqtidorli yoshlarni kashf etish, o'quvchilarning intellektual salohiyatini o'stirish, ijodiy faoliyatini rivojlantirishdan iborat. Mazkur ijod maktablarida adabiyot fanini zamonaviy usulda o'qitish, milliy metodika va xorijiy tajriba asosida adabiy ta'limni tashkil etish, adabiyot darslarida o'quvchilarning mantiqiy, kreativ, ijodiy tafakkurini yuksaltirish masalasini hal etish asosiy vazifa sanaladi.

Adabiyotning boshqa fanlardan farqi shuki, inson qalbiga ta'sir ko'rsatib, ruhiy va ma'naviy olamiga kirib boradi. O'quvchilarda badiiy adabiyotga muhabbat tuyg'u-si adabiyot darslarida paydo bo'ladi. Badiiy asar mutolaasi davomida badiiy-estetik did shakllanadi. Ta'lim tizimida an'anaviy darslardan uzoqlashish, zamonaviy adabiyot

darslarini tashkil etish ehtiyoji oshib bormoqda. Xususan, adabiyot darslarida mumtoz asarlarni o'qitish, ta'lim texnologiyalari asosida tushuntirish, mumtoz namunalarni o'rgatishning samarali usullarini ishlab chiqish masalasi dolzarblik kasb etadi.

Mumtoz adabiyot asrlar davomida insoniyat kamoloti, ma'naviy rivoji uchun xizmat qilib kelgan. Uzluksiz ta'lim tizimida mumtoz asarlarni o'rganish, adabiyot darslarida mumtoz matnni kontekstual tahlil etish va sharhlab o'qitish, o'tmish asarlardagi an'anaviylik va obrazlilik, ramziylikka e'tibor qaratish, xolislik, tizimlilik, aniqlikni talab qiladi.

Ta'lim tizimida mumtoz siymolar, adib va shoirlar ijodiy merosini o'rganish, o'rgatish, o'qitish masalasini tadqiq etish uzoq tarixga borib taqaladi. Musulmon dunyosining muqaddas kitobi Qur'oni Karim, Muhammad alayhissalom hadislarini, buyuk allomalarimizning tasavvufona g'azallari va hikmatlari yosh avlod ma'naviyatining barkamol bo'lishida, to'g'ri tarbiya topishida muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Qadim manbalar, tarixiy, nasriy, lirik asarlar mazmun-mohiyatini chuqur tushuntirish, mumtoz matn nafosatini his qildirish kabi masalalarning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish, ta'lim tizimida joriy qilish adabiyotshunos va metodist olimlarning doimiy ravishda diqqat markazida bo'lib kelgan. Jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxon o'g'li, Ishoqxon Ibrat, Saidahmad Siddiqiy, Abduqodir Shakuriy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat kabi atoqli mutafakkirlar o'zlari yaratgan ulkan ma'naviy meros bilan adabiyot fanini o'qitish va adabiy ta'lim jarayonini tashkil etishda ulkan hissa qo'shganlar. Ular yosh avlod tarbiyasida va ilm olishidagi muhim masalalar haqida qimmatbaho asarlar yaratganlar. Eng o'g'ir davrlarda o'zlarining mablag'laridan maktablar ochib xalqqa ma'rifat tarqatganlar. Hur fikrli pedagoglardan Shakuriy yangi usuldagi maktablar tashkil qilishda, o'qish-o'qitishning yangi tartiblarini joriy etish va o'qituvchilarning katta guruhini tarbiyalab yetishtirishda xizmatlari juda katta bo'lgan va gazeta redaksiyasi tomonidan yuqori baholangan.

Hamzaning fikricha, bolalarni barkamol inson qilib tarbiyalash uchun o'qituvchining o'zi chuqur bilimga ega, qobiliyatli va yuksak fazilatli bo'lishi kerakdir. Ma'rifatparvar pedagog Abdulla Avloniy "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida "Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'b zamonlardan beri tadbiiq qilinib kelingan, muallimlarning diqqatiga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir narsadir. Fikr insonning sharofatlik, g'ayratlik bo'lishiga sabab bo'ladur. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so'ng daraja muhtojdurkim, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog'lidir. Ta'lim ila tarbiya orasida biroq farq bor bo'lsa ham, ikkisi biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidir"<sup>1</sup>. Tilga, madaniyatga muhabbat har bir kishining xalqiga bo'lgan muhabbatdir. Avloniyning ta'kidlashicha, har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurg'on o'ynay hayoti til va adabiyotidir.

Abdulla Avloniy "Maktab va Guliston" darsligida adabiy asarlarni ifodali o'qishning yakka va ko'pchilik bo'lib o'qish, ifodali o'qish, dialog, drama holiga keltirish turlarini ko'rsatdi. Avloniy "Adabiyot" kitobining I juz'ida bolalarni aruz vaznida yozilgan she'rlar bilan tanishtiradi. Masalan, "bo'lak" radifli she'rni o'rganishdan oldin bolalar uning mazmuni bilan tanishadilar, so'ngra "foilotun, foilotun, foilun" bahrini o'qishni o'rganadilar. Avloniy "Adabiyot" kitobining II juz'ida ham aruz vaznida yozilgan she'rlarni o'qish yo'llarini aytib o'tgan.<sup>2</sup> Abdulla Avloniy o'z asarlarida zamonaviy pedagogikaning nazariy va amaliy asoslarini yaratdi va bu asarlar zamonaviy pedagoglar tayyorlashga, darslik,

<sup>1</sup> <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/fan/Abdulla-Avloniy-milliy-uyg-onish-davri-o-zbek-pedagogikasining-asoschisi.htm>

<sup>2</sup> Zununov.N.Hotamov.J.Esonov.A.Ibrohimov. Adabiyot o'qitish metodikasi:-Toshkent: O'qituvchi.1992.30b

qo'llanmalar yaratilishiga asos bo'ldi. Avloniyning mumtoz namunalarni o'rganish va o'rgatish, tarbiya haqidagi fikrlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

A. Zununov, N. Hotamov, J. Esonov, A. Ibrohimovlarning "Adabiyot o'qitish metodikasi" qo'llanmasida izohli o'qish haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan: "Izohli o'qish jarayoni qismlari o'zining tuzilishiga ko'ra shunday xususiyatga ega edi: kirish mashg'ulotida o'quvchilarga bilim tayyor holda emas, balki ma'nosi yoritilgan, sharhlangan, isbotlangan holda beriladi, bilim berishda ko'rgazmalilikdan foydalaniladi. Ta'limda bu usulni qo'llash o'quvchida xotira bilan birga, kuzatish va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi"<sup>3</sup>. Darhaqiqat, nutqning boy bo'lishi "... o'zbek xalqining qochiriq so'zlari va ko'chma ma'noli so'zlaridan, o'xshatish, sifatlash, jonlantirish, istiora, muholaga kabi badiiy til vositalaridan, ritorik so'roq gaplardan foydalanishda namoyon bo'ladi. Tilning bu tasviriy vositalari nutqqa go'zallik, joziba va rang-baranglik baxsh etadi"<sup>4</sup>.

Adabiyot darslarida mumtoz matnlarning til xususiyatlari o'rganilganda ona tili darslarida fonetika, leksikologiya, morfologiya, sintaksis, punktuatsiya, badiiy uslub haqidagi bilimlarga e'tiborni qaratish kerak. Qozoqboy Yo'ldashev, O. Madayev, A. Abdurazzoqovlar tomonidan tayyorlangan "Adabiyot o'qitish metodikasi" nomli dasturiy qo'llanma o'zbek adabiyotini maktablarda bugungi kun talabi darajasida o'qitishni nazarda tutadi. Unda maktablarda adabiyot o'qitishdan bosh maqsad o'quvchining qalbini shakllantirish ekanligi, adabiyot darslarida o'quvchilar badiiy asarlarni, adiblarning tarjimai hollarini, nazariy bilimlarni shunchaki bilib qo'ya qolishlari kifoya emasligini, yosh avlod his qilishga odatlanishi lozimligini ta'kidlaydi.

Metodist olimlar A. Zununov, J. Esonovlarning "Maktabda adabiyot o'qitish metodikasi" kitobida badiiy matnlarni sharhlab o'qitish haqida qimmatli ma'lumotlar keltirib o'tilgan: "Sharhli o'qish o'qituvchidan ham, o'quvchidan ham puxta tayyorgarlikni talab etadi. O'quvchilarni asarni bevosita idrok qilish, o'qish mashg'ulotini asarni analiz qilishga, mustaqil aqliy faoliyatga tayyorlaydigan darajada tashkil etishni talab qiladi".<sup>5</sup>

Metodist olim Q. Yo'ldashev ta'kidlaganidek, "O'quvchilar diqqati asarda aks etgan voqealar oqimigagina qaratilib qolmay, ana shu voqealar bayoni asnosida qo'llanilgan badiiy san'atlar hamda ijodkorning mahoratini namoyon qiluvchi jihatlariga yo'naltirilsa, ularning ko'ngil ko'zi ochiladi. Shunda bolalar so'zning sehrini his etadi, uning badiiy ichki imkoniyatini, yashirin qirralarini topa oladigan bo'lib boradi".

Metodist olim Z. Mirzayevaning ilmiy qarashlariga ko'ra, "Bugun adabiyot fanini o'qitishda yangicha yondashuvlar, talablar o'quvchilarda ham adabiyotga munosabatni o'zgartirdi. Xususan, bugun yoshlarimiz adabiyot fanini faqat oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun bo'ladigan test sinovlariga tayyorgarlik nuqtayi nazaridan emas, balki o'z tafakkuri, tasavvuri, didi, saviyasi, umuman, ma'naviy qarashlarini yuksaltirish maqsadi bilan o'rganish zarurligini his qila boshladilar".<sup>6</sup>

Ushbu qo'llanmada bugunga qadar adabiy ta'lim sohasida milliy manbalarda aks etgan ma'lumotlarni to'ldirish maqsadida, ko'proq o'qitishning xorijiy tajribasiga qaratilgan va milliy adabiy ta'limda mavjud bo'lmagan yoki u qadar keng yoritilmagan nazariy

<sup>3</sup> Zununov.N.Hotamov.J.Esonov.A.Ibrohimov. Adabiyot o'qitish metodikasi: –T.: O'qituvchi,1992.38b

<sup>4</sup> Gulomov A.,Qodirov M., Ernazarova M., Bobomurodova A., Alavutdinova N., Karimjonova V. Ona tili o'qitish metodikasi: –T.: Fan va texnologiya 2012.-380 b

<sup>5</sup> Zununov A., Esonov J. Adabiyot o'qitish metodikasi: – T.: O'qituvchi, 1985.196b

<sup>6</sup> Z. Mirzayeva, K. Jalilov Adabiyot o'qitish metodikasi( an'anaviylikdan zamonaviylikka). Uslubiy qo'llanma. – T.: 2020. – 6 b.

qarashlar tahliliga e'tibor berilgan. Mazkur ilmiy risola ikki bo'limdan iborat bo'lib, uning birinchi bo'limida adabiyot o'qitish metodikasining nazariy asoslari haqida ma'lumot berilsa, ikkinchi bo'limida nazariy tushunchaning amaliyotga tadbiqu bilan bog'liq ma'lumotlarga e'tibor qaratiladi. Umumta'lim maktablarining quyi va yuqori bosqichlarida amaldagi adabiyot darslarining kutilgan darajada emasligi, adabiyot darsliklaridagi savol-topshiriqlar bolani tanqidiy fikrlashga, tafakkurini rivojlanishiga ta'sir etmayotganligi bizga sir emas.

Metodist olimi Z. Mirzayevaning tadqiqot ishida "Keyingi o'n yillikda yaratilgan adabiyot o'qitish metodikasi yo'nalishida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar, darsliklar, o'quv, o'quv-uslubiy qo'llanmalarni jahon adabiy ta'limi bilan qiyosiy o'rganish natijasida milliy metodika kutilgan darajada xalqaro standartlarga mos rivojlana olmayotganligining eng muhim sabablari quyidagicha tasniflab o'tilgan:

- birinchidan, adabiy ta'lim, jumladan, badiiy asarni o'qitish yoki o'rganishga qaratilgan muayyan konseptual yondashuvlarning nazariy asoslari yaratilmayotganligi;
- ikkinchidan, fan va ta'lim integratsiyasi faqat qog'ozlarda qolib ketayotganligi, metodika sohasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar amaliyotga izchil tatbiq etilmayotganligi, aniqroq qilib aytganda, adabiy ta'lim va pragmatizm o'rtasidagi aloqaning butkul uzilib qolganligi;
- uchinchidan, yaratilayotgan tadqiqotlar adabiy ta'limning faqat ichki imkoniyatlari bilan cheklanganligi, milliy adabiy ta'lim muammolari rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi o'qitishning ilg'or tajribalari, boy ilmiy nazariy fikrlar, yondashuvlarning qiyosiy tahlilga asoslanmaganligi va ayrim holatlarda samarasiz o'qitish usullari qobiqlaridan chiqib keta olmaslik holatlari va yana bir qator no'malum sabablar".<sup>7</sup>

Buyuk olimlarimizning ta'lim sohasidagi eng qimmatli va purhikmat fikrlari yosh avlodni barkamol, vatanga muhabbatli va sadoqatli qilib tarbiyalashda yillar o'tsa-da, o'z qimmatini va ahamiyatini yo'qotmaydi. Yosh murabbiylarning yo'lini yorituvchi mayoq bo'lib xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hashimov K., Nishanova S. Pedagogika tarixi. II-qism. Darslik. – T.: Alisher Navoiy, 2005.
2. Zununov N., Hotamov J., Esonov A., Ibrohimov. Adabiyot o'qitish metodikasi, – T.: O'qituvchi. 1992.
3. G'ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., Bobomurodova A., Alavutdinova N., Karimjonova V. Ona tili o'qitish metodikasi. – T.: Fan va texnologiya, 2012.
4. Abu Rayhon Beruniy. "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1-jild. (Mas'ul muharrirlar: I. Abdullayev, O. Fayzullayev). – T.: Fan, 1968.
5. Yo'ldashev Q. Adabiy saboqlar: Umumta'lim maktablarining 7-sinf "Adabiyot" darsligi uchun metodik qo'llanma. – T.: Bilim, 2003.
6. Z. Mirzayeva, K. Jalilov. Adabiyot o'qitish metodikasi (an'anaviylikdan zamonaviylikka). Uslubiy qo'llanma. – T., 2020.
7. <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/fan/Abdulla-Avloniy-milliy-uyg-onish-davri-o-z-bek-pedagogikasining-asoschisi.ht>

<sup>7</sup> Z. Mirzayeva, K. Jalilov Adabiyot o'qitish metodikasi( an'anaviylikdan zamonaviylikka). Uslubiy qo'llanma. – T.: 2020. – 14 b.

**Bosh muharrir:**

Mahmudov Sarvar Yuldashevich

**Mas'ul kotib:**

Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

**Bosh dizayner – badiiy muharrir:**

Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

**TAHRIR HAY'ATI:**

Xilola UMAROVA, Risboy JO'RAYEV, Komiljon MUQIMOV, Ulug'bek INOYATOV, G'ayrat SHOUMAROV, Maqsudjon YULDASHEV, Oynisa MUSURMONOVA, Lola MO'MINOVA, Dilyara SHARIPOVA, Barno ABDULLAYEVA, Rohatoy SAFAROVA, Xolboy IBRAGIMOV, Ravil IS'YANOV, Mirodiljon BARATOV, Shaxnoza XALILOVA, Sharibboy ERGASHEV, Yashin ISMANDIYAROV, Alisher UMAROV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA'MUROV, Shukurullo MARDONOV, Ulfat MAHKAMOV, Muhayyo UMARALIYEVA.

**JAMOATCHILIK KENGASHI:**

Dilshod KENJAYEV, Sobitxon TURG'UNOV, Nargiza RAXMANKULOVA, Abduhalim MAHMUDOV, Kamola RISKULOVA, Feruza QODIROVA, Islom ZOKIROV, Ravshan ABDUXAIROV.

**Tahririyat manzili:**

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
E-mail: xalq\_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 231-16-51, Faks: 231-16-52  
t.me/xalqtalimi\_jurnali. [http://t.me/xalq\\_talimi\\_jurnali](http://t.me/xalq_talimi_jurnali).

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e'lon qilingan maqolalardan olingan matnlar “Xalq ta'limi” ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko'rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagi 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro'yxatiga kiritilgan.

“TAFAKKUR NASHRIYOTI” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko'chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: \_\_.\_\_.\_\_\_\_-y. Qog'oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.  
Shartli b.t. 12,0. Adadi \_\_\_\_ nusxa. – buyurtma.  
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas'ul – To'xtamurodova Shohida Akmalxo'ja qizi

Jurnalga taqdim etilgan barcha materiallar <https://rustxt.ru/antiplagiat> sayti hamda [https://t.me/check\\_antiplagiat\\_bot](https://t.me/check_antiplagiat_bot) da monitoring qilinadi.

© “Xalq ta'limi” jurnali, 2023.